

## **PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH MAKTAB FAOLIYATINING MUHIM VAZIFASI SIFATIDA**

**Axmedov Baxtiyor Tursunovich**

*Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

**Qarshiyeva B.U.**

*Termiz davlat pedagogika instituti Amaliy psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi.*

Bugungi kunda yoshlar ijtimoiy turmushini ularning ezgu niyatlari bilan muvofiqlashtirish psixologik xizmatni yo'lga qo'yish va uni takomillashtirishga bog'liq ekanligini ta'kidlash yanada muhimdir. Ilg'or psixologiya fanidagi yutuqlarni amalyotda qo'llash orqali o'quvchi shaxsi va uning ijtimoiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida o'smirlarga psixologik xizmat ko'rsatishning uslubiy jihatdan to'g'ri olib borilishi ta'lim samaradorligi va o'smir shaxsining ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Psixologik xizmat faoliyatini bolalar, yosh va pedagogik psixologiya, psixokorreksiya, psixologik maslahat sohasida umumiy psixologik va maxsus psixologik bilimlar olgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Psixolog maslahat berish ishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Bolalar, o'qituvchilar, talabalar ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma'muriyat (direktor, rektor, mudir) o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari, xodimlariga aniq, yaqqol va tushunarli tarzda maslahatlar berish.

1. Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o'zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetmaganlar munosabati, masalan, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruh, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish.

2. Ma'muriyatga, bolalar, o'quvchilar, talabalarga (yotoqxonada, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar bo'yicha bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik o'sishi xususiyatlariga oid ma'lumot berishi, o'g'il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarni g'amxo'rlik va vasiylik to'g'risidagi qabul qilgan qarorga munosabati, shaxs taqdirini hal qilishda qatnashishi va maslahatli fikr berishi lozim.

3. Ota onalarga bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlarini shaxs sifatida shakllanishi, o'zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi, individual tipologik xususiyatlari muammosi bo'yicha ilmiy-amaliy maslahatlar beradi.

4. Professional ta'lim tizimi va kasb-hunar kolleji o'quvchilari, akademik lisey talabalariga ularning imkoniyati, istiqboli to'g'risida ilmiy – amaliy

xususiyatga molik konsultativ ishlar olib borish: yoshlarni saralash, tanlash, kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash, tanlov komissiyasida maslahatchi sifatida ishtirok etish.

5. Mazkur ishlar o'quvchilarni maktabda, kolleжда va liseylarda o'qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini aniqlashga mo'ljallangandir. Tashxis ishlar guruhiy yoki individual tarzda o'tkaziladi. Bu asnoda amaliy psixolog quyidagi vazifalarni bajaradi. O'quvchilarning kasbiy yaroqliligini tashxis qiladi, ularning shaxs xislatlar, irodaviy sifatleri, his-tuyg'ulari, o'z-o'zini boshqarish imkoniyati, intellektual darajasini tekshiradi. Maslahat berish ishlari-amaliyotchi psixologning asosiy faoliyat turlaridan biri sifatida o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar uchun olib boriladi. Maslahat berish ishlari individual va guruhiy tartibda olib borilishi mumkin. Turli fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, bolalarning o'qiy olmasligi va o'qishni istamasligi, guruhda nizoli vaziyatlar, shaxsiy pedagogik ta'sirning natija bermasligi, har xil yoshdagi bolalarning tengdoshlari oila muloqati va bolalar jamoasining shakllanishi, o'quvchilarning qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish yo'llari, o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish.

Kasbiy faoliyat jarayonida amaliyotchi psixologga o'qituvchilar ham murojaat qilib turadilar: Kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatni yaxshilash masalalari, o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini bilish, aqliy mehnat va xulq-atvor madaniyati va boshqa muammolar shular jumlasidandir.

Maktab amaliyotchi psixologi o'quvchilar bilan bevosita aloqada bo'lib, ularda vujudga kelgan muammolarni hal qilib boradilar. Bu esa kasbiy faoliyatda to'g'ridan to'g'ri maslahat berish deb ataladi. Ba'zan o'quvchilarga va ota-onalarga o'qituvchilarning u yoki bu muammolari bo'yicha maslahat beishga to'g'ri keladi, bu bivosita maslahat berish sifatida e'tirof etiladi, bunda ma'lum qoidalarga amal qilishga to'g'ri keladi. Maslahat berish markazida har doim psixolog va maslahat berilayotgan shaxsning o'zaro ta'sir jarayoni, ular orasida ishonchli o'zaro munosabatni o'rnatish yotadi. Bunda psixolog – maslahat beruvchi, o'qituvchi, ota-ona – maslahat beriluvchi, o'quvchi mijoz rovida bo'ladi.

Bilamizki, maslahat berish – psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlaridan biri xisoblanadi. Lekin psixologik maslahat o'zi nimaligi haqida yagona tushuncha yo'q. Kollejlardagi yoki akademik liseylardagi psixolog ishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Psixolog aniq o'quv muassasasidagi o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatning ijobiy va salbiy tomonlarining, rivojlanadigan ijtimoiy muhitning ichida bo'ladi. U har bir o'quvchi yoki o'qituvchining o'zinigina emas,

shaxslararo munosabatning murakkab sistemasini ham ko'radi, boshqa ish turlari bilan birgalikda vaziyatni hal qiladi. Yuqoridagi usulda ish olib borganda psixolog va o'qituvchi o'z sohasini yaxshi biluvchi mutaxassislar sifatida namoyon bo'ladi.

1. O'quvchi muammolari bo'yicha ularning hamkorligi bilimlarining birikuviga imkon beradi va muammolarni hal qilish uchun keng ijodiy imkoniyatlar yaratadi.

2. Psixolog o'quvchilar va talabalarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, ilk iqtidori kabilarni o'rganadi, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam ko'rsatadi.

3. O'smirlarda uchraydigan o'quv malakalari va ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar xulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlarni tashxis qiladi.

4. Boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differensial tashxisani amalga oshiradi. Nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlaydi. Assotsial xulq-atvor sabablarini va shakllarini belgilaydi. Giyohvandlik va taksikomanlik, alkogolizm, o'g'rilik, daydilikning ijtimoiy psixologik ildizlarini tekshiradi, omillarni tahlil qiladi. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jaryonida faol ishtirok etishni taqozo qiladi. Xalq ta'limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan holda tashkil qilishdan iborat bo'lib, yosh davr xususiyatlariga binoan psixikaning rivojlanishi, shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etish, o'qituvchilar jamoasiga bolalar, o'quvchilar va talabalar ta'lim va tarbiyasini individuallashtirishda yordamlashish, ularning qobiliyati, maylini o'sish darajasiga qarab o'qituvchilarga korreksion ishlarni amalga oshirishda ko'rsatmalar berish kabilarda ko'rinadi. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa-bu bolalar, o'quvchilar, talabalar o'sishida kechikish, ularda xulqning buzilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi kabilarni o'rganish bo'lib ham hisoblanadi.

Psixolog bolalar, o'quvchilar, talabalarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ularni psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yo'naltiradi, ijtimoiy o'sish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik xususiyatlar muhitida kamolatga intiluvchi shaxsni tarkib toptirishni bosh maqsad deb tanlaydi. Amaliy psixolog bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotdagi, xulq - atvor muomalasidagi nuqsonlar va hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotga uni tatbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazadi, ijodiy qobiliyatlarni o'stirish maqsadida treninglar olib

boradi. Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihati esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o'tkaziladi va butun mas'uliyat uning zimmasiga tushadi.

Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda hal qilinadi:

a) O'smirlarga amaliy yordam berish

b) O'smirlar guruhiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish.

v) Ota-onalar pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

Rivojlantiruvchi psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo'nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari hisobga olinishi lozim. Psixotashxis tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi.

1. Tashxis uchun ma'lumotlarni olish. Bunda bola psixik holati va shaxsiy xususiyatlari ba'zi belgilarining ko'rinishlarini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib xulq-atvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari, taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi. Masalan, darsda o'quvchi diqqatining barqaror emasligi, diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Psixotashxis tadqiqotlar bola psixik funksiyalari rivojlanish darajasining, aqliy taraqqiyot darajasi, yosh va ma'lumot bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun ham o'tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada ma'lum qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlash payti kelganda juda muhimdir.

2. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Agar «ko'ndalang kesim» metodlari orqali psixotashxis tadqiqot ma'lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya'ni psixik funksiyalar rivojlanishi lolzarb zonasi aniqlanadigan bo'lsa, «uzunasiga kesim» (longitudinal) psixotashxis tadqiqotlarda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixotashxis tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi maktabda o'qishi xaqida masala hal bo'layotganda tibbiy pedagogik hay'at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.

4. Bolada paydo bo'lgan yetarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda, tadqiqotchilarni qiziqtirgan masala bo'yicha katta guruhlarda tadqiqotlar o'tkaziladi. U yerda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim

ahamiyat kasb etadi. Psixologik xizmatda tashxis-rivojlantiruvchi yo'nalishlar ishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

D.B. Elkoninning ta'kidlashicha, bolalarni tanlash uchun, aniqlangan chetlashishlarni tuzatish maqsadida psixik taraqqiyotni nazorat qilishga yo'naltirilgan maxsus tashxis zarur bo'ladi. Amaliyotchi psixolog faqatgina diagnoz qo'yish bilan cheklanmasdan, keyingi rivojlanish dasturini ishlab chiqadi, o'zi bergan tavsiyalarning bajarilishini nazorat qiladi, korreksion va rivojlantiruvchi treninglarni olib borishga alohida e'tibor qaratadi.

Amaliyotchi psixologning tashxis-korreksion ishi murakkab faoliyat turlaridan biri bo'lib, maxsus psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Bu jarayon birinchi bo'lib, tarbiyasi qiyin va normal bolalarni o'rganishga bag'ishlangan pedagogik tadqiqotlarda L.S. Vigotskiy tomonidan qo'llangan. Psixoprofilaktik ish-amaliyotchi psixologning eng kam ishlangan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Psixoprofilaktikada asosan uch bosqichli jarayon ajratib ko'rsatiladi:

Birinchi bosqich dastlabki profilaktika deb ataladi. Bu bosqichda psixolog psixologik sog'lom bolalar bilan ishlaydi yoki maktabdagi barcha o'quvchilarni qamrab oladi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, maktab muxiti psixik sog'lomlik profilaktikasi uchun qulay hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich profilaktika muammolari mavjud bolalarga qaratiladi. Uning maqsadi - o'qishdagi va xulq - atvordagi qiyinchiliklarni iloji boricha erta aniqlab, ularni yo'qotishdan iboratdir.

Shuningdek mazkur bosqich ota-onalar va o'qituvchilarga maslahat ishlarini ham o'z ichiga oladi (bolaning o'qishi o'zgarishi uchun ta'lim uslubini o'zgartirish) bo'yicha maslahatlar berish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Uchinchi bosqich. Psixolog o'qishdagi va xulq - atvordagi yaqqol ko'rinib turadigan muammolari bor bolalarga o'z e'tiborini qaratadilar.

Profilaktikaning dastlabki maqsadi-jiddiy psixologik qiyinchilik larni va muammolarni yo'qotish va tuzatishdan iborat. Psixolog oldiga kelgan bola bilan alohida ishlaydi. Maktab psixologining asosiy kuchi uchinchi bosqichga, ya'ni «tarbiyasi qiyin» bolalarga qaratiladi, natijada o'quvchilarning asosiy qismi psixolog e'tiboridan chetda qolib ketishi ayniqsa afsuslanarli xolatdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda barcha turdagi ta'lim muassasalarida psixologlarning faoliyati, psixologik maslahat va Profilaktika muammolaning ijtimoiy-psixologik faol usullari, psixokorreksion, psixotashxis, ijtimoiy, pedagogik, bolalar psixologiyasi sohalari bo'yicha umum psixologik tayyorgarlik olgan, psixologik ixtisosga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshirilsa, psixologik xizmat faoliyati yanada samaradorlikka erishishga imkon beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 104 b.
2. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi:Darslik-T.:”Sharq”, 2014.272-bet.
3. Fayziyeva M, Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi.-T.:”Sharq”,2007.42-bet.
4. Karimova, M. (2023). QIZLARNING MUHABBAT BORASIDAGI TASAVVURLARINING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).
5. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
6. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

